

OLMON TILIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLAR

Djumaniyazova Gulnoza Shuxratovna

UrDU, Xorijiy filologiya fakulteti,

„Roman-german filologiyasi” kafedrası o‘qituvchisi

Annotasiya. Maqolada olmon tiliga o‘zlashgan so‘zlar tarixi, anglisizmlarni olmon tiliga kirib kelishi va o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. anglisizm, o‘zlashma so‘zlar, halqaro til, sof olmoncha so‘zlar, olmonlashtirilgan so‘zlar

Nemis tilida o‘zlashmalarining tarixda ko‘p o‘zlashgan va bugungi kunda so‘zlar o‘zlashishi davom etayotgan til shubhasiz bu ingliz tilidir. Amerika ikkinchi jahon urushidan keyin yetakchi davlatga aylanganligi, bugungi globallashuv jarayonlari, fan texnikaning rivojlanishi, savdo-iqtisodiy aloqalar ingliz tilidan so‘zlarning kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari nemis tilida italyan tili, kelt tili, slavyan tillari, rus, arab, ispan va boshqa tillardan so‘zlar o‘zlashganini ko‘rishimiz mumkin.

Olmon tili tarixiy rivojlanishidan to hozirgi kungacha boshqa tillar kabi o‘zga tillar va madaniyatlar ta`siri ostida rivojlangan. Ommaviy axborot vositalarida hozirgi kunda o‘zga til so‘zlarini eng avvalo ko‘proq anglisizmlarni ko‘p uchratamiz, ko‘ramiz va eshitamiz. Anglisizmlar olmon tilida qo‘llanilishi hozirgi kunda diqqat markazda turgan katta mavzulardan biridir, shu jumladan ona tilimiz o‘zbek tilida ham shiddat bilan lug‘at boyligimizni inglizcha o‘zlashma so‘zlar to‘ldirmoqda. Ba`zi so‘zlovchilar anglizmlarni bajonidil nutqida foydalansa, boshqalar esa unga qarshi. Lekin anglisizmlardan qochib bo‘lmaydi, sababi ular hayotimizning barcha sohalarida samarali iste`mol qilinmoqda. Asosan anglisizmlar iqtisodiyot, siyosat, ilm-fan, texnika, sport, san`at va madaniyat sohalarida ko‘p uchraydi. Ingliz tili 20 asrda halqaro til sifatida rivojlandi va tanildi. Bunga sabab Amerika filmlari va axborot vositalarining keng tarqalishi, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar va texnologiyalarning rivojlanishi bo‘ldi. Ingliz tili soha tillarida ham katta rol o‘ynadi. Shu jumladan u komputer tili, sport va reklama sohalarida katta ta`sir ko‘rsatdi.

Agar olmon tili o‘zlashmalariga nazar solsak, quyidagi bosqichlarni ko‘ramiz:

- Milodning 1 asridan 5 asrigacha ko‘pgina so‘zlar lotin tilidan olmon tiliga kirib kelgan (m-n. *Kaiser, Pfund, Pferd, Kerze, Tisch*)



- 800 yildan 1100 yillargacha. – ko‘pgina o‘zlashgan so‘zlar cherkov lotin tili (Kirchenlateinischen), lotin tili vositasi (Mittellateinischen) (M-n. *Mönch, Opfer, Dechant, Almosen*) va grek tillaridan (*Kirche, Papst, Ketzer, Pfarrer, Teufel, Engel, Christ, Samstag, Bischof, Apostel, Arzt, Balsam, Fieber, Pflaster*) bo‘lgan.
- O‘rta asrlarda lotin va grek tillaridan o‘zlashmalar kirib kelgan (*Abt, Dom, Chor, Messe, Kreuz, Kloster, Legende, Text, Brief, Butter, Turm, Mantel, Kanzler, Melodie, Harmonie, komponieren*)
- 14 asrdan 16 asrgacha lotin tili vositasi (*Definition, Logik, Advokat, Fakultät, Autor, Medizin, Astronom*)
- 15 va 16 asrlarda - italiyan tilidan o‘zlashmalar (*Bank, bankrott, Konto, Valuta, allegro, Oper, Sopran*)
- 17 asrda (30-yillik urush davrida) - Italiyan, Franzuz tillaridan o‘zlashmalar (*Alarm, desertieren, Proviant, Batterie, Taktik, rekrutieren*)
- 17 va 18asrlarda – Franzuz tilidan o‘zlashmalar (*Cousine, Terrasse, Frisur, Marmelade, Ballett, Brokat, Gobelin*)
- 18 asrda (Aufklärung) – Fransuz tilidan (*Diskussion, systematisch, Hypothese, Grazie, ideal, Ballade, Hymne, Aristokrat, Nation, Revolution*)
- 18 asrdan – ingliz tilidan (*Robinsonade, Originalität, Humor, Agitator, Kongress, lynchen, Streik, Lokomotive, Express*)
- 19 asrda esa – ingliz tilining ta`siri kuchaydi (*Baby, Gentleman, Pudding, Whiskey, Sherry*)
- 20 asrdan – ingliz tilidan so‘zlar doima ommalashib bordi va soni bugungacha o‘smoqda (*Jazz, Song, Teenager, Test, Paper, Output, Thriller*).

O‘rta asrlar davrida ingliz tilining ta`siri kam bo‘lgan. Ilk o‘rta asrlarda cherkov tili lotin tilidan ko‘pgina o‘zlashmalar olmon tili so‘z boyligiga qo‘shilgan. O‘rta asrning so‘ngida dengiz sayohat qilish va kemasozlik sohasi rivojlana boshlagan. Kemasozlik va dengiz orqali savdo rivojlanishi bilan Evropaning g‘arbiy qismidan o‘zlashma so‘zlar (*Flotte, Harpune, Havarie, Kapitän, Mole*) german tiliga ta`sir ko‘rsatgan. O‘rta asrlarda cherkov tili bo‘lmish lotin tilidan ko‘plab so‘zlar olmon tiliga kirib kelgan: *Abiturient, Aula, Fauna, Flora, Lektion, studieren, interpretieren* va boshqalar.

XVII asrlardan fransuz madaniyati ko‘p sohalarda kirib kelgan, shu bilan birgalikda fransuz tilidan o‘zlashmalar (*Statue, Porzellan, Galerie, Balkon, Möbel, Hotel, Kuriositäten, inkognito, Route, Tour* va b.) ham: kiyinish, moda, san`at, hunarmandchilik, uy va bog`larni jihozlash, kulinariya, sayohatga oid terminlar.

1648 yilda Karl I ning diqqat markazida Angliya turar edi. Siyosatga ko‘pgina inglizcha iboralar , ya`ni Unterhaus (1649), Oberhaus (1661), Haus der Gemeinen (1661), Bill (1683“Gesetzentwurf“, verdeutscht von J.H. Campe 1801 yilda J. H. Kampe tomonidan olmonlashtirilgan) va Hochverrat (1668). Germaniyada sahnaga qo‘yilgan ingliz komediyalari ham olmon tilida o‘z izini qoldirgan. „O“ undalmasini tushum kelishi bilan qo‘llanilishi: „oh mich getreu“ ing. „oh me“.

Hamburg shaxri Germaniyadagi eng muhim ingliz filologlari markazi hisoblanad bu yerda ingliz grammatikasiga doir ilk kitob nashr qilingan. (3. Aufl. Der Grammatica Linguae Anglicanae von John Wallis, 1672). 1679 yili Hamburgda ingliz fuqarosi tomonidan birinchi olmon qahvaxonasi „Coffeehaus“ nomi ostida ochilgan.

1617 Vaymar shaxrida „ Hosil beruvchi jamiyat“ („Die Fruchtbringende Gesellschaft“) ga asos solingan. U jamiyatning maqsadi o‘zlashgan so‘zlarning sof olmoncha (Purismus) variantlarini tatbiq qilishdir. Sof olmon tilchilar Yustus Georg Shottel, Georg Philipp Harsdo‘rffer, Fillip fon Sessen und shoir Martin Opitz lar tomonidan ko‘plab olmonlashtirilgan so‘zlar (Verdeutschungen) hanuzgacha iste`mol qilinmoqda. XVIIIasrda olmon tilida gapiruvchi hududlar bo‘lgan to‘rtta markaz Hamburg, Leypzig, Su`rix und Go‘ttingen ingliz tili ta`siri ostida bo‘lgan. Hamburgda ko‘plab ingliz tilidan o‘girilgan tarjimalar nashr qilingan va ingliz namunasi asosida haftalik jurnallar ham nashr qilinib turilgan. Sport sohasiga oid o‘zlashma so‘zlar ham keng qo‘llanila boshlangan: Rudersport, Tennis, Radsport, Fußball. Sport so‘zining etimologiyasi o‘zi ham ingliz tilidandir. Sport turlari hamda ular bilan bog`liq bo‘lgan so‘zlar ham iste`mol qilina boshlangan: Club, Jockey, Tattersall, Start, Outsider, Derby, Finisch, Handikap, Favorit, Tip u.a.

XX asrda ingliz tilidan o‘zlashma so‘zlar juda ommalashgan: ayniqsa amerikanacha-ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar: M-n. Schläger statt Racket, Aufschlag statt Service. O‘sha vaqtda o‘zlashma so‘zlar Radio va Televideniya orqali keng tarqalgan: Musical, Feature, Slogan, Trend, Comeback, mixen, Job, Make-up, Fan u.a. Ko‘plab o‘zlashmalar Moda va maishiy xizmat sohasiga oid : Fitnessraum, Hitparade, Showstar, Partykeller, Jeans, Thermohose, College-Look, Sweatshirt va x. ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar keyingi yillarda eng yuqori pog`onasiga chiqdi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Karimov Sh., Ismoilov Y. O‘zbekcha-nemischa lug‘at. – Toshkent: Nihol nashriyoti, 2011. 252 b.
2. Mahmudov A. Nemischa-o‘zbekcha tematik lug‘at. – Toshkent: Art Flex nashriyoti, 2013 eil. 232 b.
3. Eisenberg, Peter (2011): Das Fremdwort im Deutschen. Berlin.
4. Wolff G. Deutsche Sprachgeschichte./ Gerhart Wolff. - 4. Auflage. Berlin 2006, - 320 S.